



**INGLIZ TILINING DUNYO MIQYOSIDAGI AHAMIYATI VA UNI
O'RGANISH ZARURIYATI**

Qo'qon universiteti Andijon filiali
IT va Ijtimoiy gumanitar fanlar fakulteti
"Ingliz filologiyasi" kafedrası
Ingliz tili yo'nalishi 2-bosqich 24-09-guruh talabasi
Mamadaliyeva Xalimaxon Otabek qizi
mamadaliyevaxalima8@gmail.com
Ilmiy rahbar:
Umrzakova Muattar Oybek qizi
"Ingliz filologiyasi" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Dunyo miqyosida ingliz tiliga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Hozirgi kunda ingliz tili zamonaviy jamiyatda muhim o'rin egallab, xalqaro muloqotda asosiy aloqa vositalaridan biri sifatida qo'llanmoqda. Ingliz tili millionlab odamlar uchun ona tili, milliardlab kishilar uchun esa chet tili sifatida xizmat qiladi. Ushbu maqolada ingliz tilining BMT, Yevropa Ittifoqi kabi xalqaro tashkilotlarda ishlatilishi, diplomatiya, xalqaro biznes, ta'lim va ilm-fan sohalaridagi roli yoritilgan. Shu sababli, ingliz tilini bilish shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun muhim omil bo'lib, ilmiy tadqiqotlar, akademik jurnallar va konferensiyalarda samarali faoliyat yuritish imkonini yaratadi. Matndagi tadqiqotlar va misollar ingliz tilini o'rganish madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga, turli millat vakillari o'rtasida o'zaro tushunishni mustahkamlashga va global ish bozorida raqobatbardoshlikni oshirishga yordam berishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ingliz tili, xalqaro muloqot, ta'lim, o'rganish, shaxsiy va kasbiy rivojlanish, dunyo miqyosida.

Kirish: Bugungi texnologiya va axborot tez tarqalayotgan asrida insonlar va davlatlar o'rtasidagi aloqalar juda kengaymoqda. Shu sababli xalqaro muloqotning samarali bo'lishi muhim vazifa sifatida paydo bo'ldi. Ingliz tili esa bugungi kunda eng ko'p ishlatiladigan vositalardan biri bo'lib, global muloqotda yetakchi rol o'ynaydi. Globallashuv tufayli turli davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy, ilmiy va madaniy hamkorliklar kengayib, xalqaro muloqotga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. BMT, Yevropa Ittifoqi kabi tashkilotlarda rasmiy ish yuritishning asosiy tili ingliz tilidir. Shu bilan birga, internet va raqamli texnologiyalar orqali ingliz tili global axborot maydonida yetakchi tilga aylandi. Shuning uchun ingliz tilini o'rganish nafaqat lingvistik jihatdan, balki kasbiy va shaxsiy rivojlanish uchun ham zarur. Bu tilni bilish



orqali insonlar ilmiy tadqiqotlar, xalqaro konferensiyalar va onlayn kurslardan samarali foydalanishi mumkin.

Asosiy qism: Hozirgi vaqtda ingliz tili ilmiy va kasbiy sohalarda eng talabgor tilga aylanib ulgurdi. Xalqaro ilmiy jurnallar, konferensiyalar va grantlar ko'pchiligi ingliz tilida bo'ladi. Bu tilni bilish biz kabi yosh mutaxassislariga yangi ilmiy ma'lumotlarni birinchilardan bo'lib o'qish, zamonaviy loyihalarda qatnashish va o'z sohasining yetakchisi bo'lish uchun katta imkoniyatlar beradi. Masalan, ingliz tilini bilgan mutaxassislar xalqaro ish bozorida raqobatbardosh bo'lib, nufuzli kompaniyalar bilan hamkorlik qilish imkonini qo'lga kiritadi. Ingliz tilining bunday dunyo miqyosidagi ahamiyati ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, D. Crystal o'zining *English as a Global Language* kitobida ingliz tilining tarixiy va ijtimoiy jihatlarini tahlil qiladi. U ingliz tilining keng tarqalishida siyosiy va iqtisodiy omillar muhim rol o'ynaganini ta'kidlaydi [1]. Ushbu fikrlarning davomi sifatida R. Graddolning *The Future of English* kitobida ingliz tilining kelajakdagi rivojlanishi va unga bo'lgan ehtiyojning ortishi haqida yozilgan [2]. Shu bilan birga, J. Harmer va J. Richardsning ishlari ingliz tilini o'qitish metodikasini yoritadi va tilni real muloqotda o'rganish samaradorligini ko'rsatadi. Statistik ma'lumotlar ham ingliz tilining global ahamiyatini tasdiqlaydi. 400 milliondan ortiq inson ona tili sifatida, 1 milliarddan ko'p odam chet tili sifatida ingliz tilidan foydalanadi. Shu bilan birga, dunyodagi ko'plab ilmiy jurnallar va akademik tadbirlar ingliz tilida bo'lib, bu tilni bilish global hamkorlik va ilmiy rivojlanish uchun muhimligini ko'rsatadi [3;4]. Shuningdek, til bilish- bu faqat bilim degani emas, balki turli millat vakillari bilan muloqot qilish va dunyoqarashni kengaytirish hamdir. Shaxsiy tajriba va ko'plab amaliy misollar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilini bilgan insonlar jamiyatda ham, ishda ham ancha faol va raqobatbardosh bo'lishadi. Ayniqsa, bugungi kunda o'zbek yoshlari orasida chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Men ham tengdoshlarim misolida ko'ryapmanki, ingliz tilini biladigan yigit-qizlar o'z sohasidagi so'ngi yangiliklarni chet el saytlaridan masalan, YouTube kabi platformalardan o'rganib, darslarda ham faol bo'lishyapti. Faqatgina YouTube emas, balki bugungi kunda Coursera va Khan Academy kabi xalqaro ta'lim platformalarining asosiy tili ham aynan ingliz tilidir. Bundan tashqari, ingliz tili nafaqat texnik bilim, balki "soft skills" deb ataluvchi yumshoq ko'nikmalarni, ya'ni muzokara olib borish, liderlik va jamoada ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ham kalit hisoblanadi. Negaki, xalqaro hamjamiyatda o'z fikrini dalillash va loyihasini himoya qilish uchun professional darajadagi muloqot tili zarur. Chunki zamonaviy tibbiyot, iqtisodiy yoki muhandislik sohalaridagi yangi atamalar va uslublar birinchi bo'lib ingliz



tilida shakllanmoqda. Keyingi yillarda mamlakatimizda ham ta'lim tizimida katta islohotlar bo'lyapti. Prezidentimiz tomonidan ham chet tillarini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlar, imtiyozli sertifikatlar va chet elda o'qish xarajatlarining qoplab berilishi bizga katta kuch beradi. Bundan tashqari, ingliz tili bizga turli madaniyatlar bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lanish imkonini berdi. Turli davlatlardan kelgan sayyohlar yoki mutaxassislar bilan gaplashganda, biz nafaqat o'zimizni tanishtiramiz, balki vatanimizning boy madaniyatini ham ularga yetkazamiz. Yana bir muhim jihati shundaki, ingliz tilidagi manbalar bizga tanqidiy fikrlashni o'rgatadi. Bir xil mavzuda bir necha xil qarashlarni o'qish, ularni solishtirish va o'z xulosamizni chiqarish uchun bizda ma'lumotlar bazasi keng bo'ladi. Shu sababli, ingliz tilini yaxshi biladigan yoshlarda o'z-o'zini boshqarish "self-management" ko'nikmasi boshqalarga qaraganda kuchliroq rivojlangan bo'ladi. Zero, har kuni yangi so'zlarni yodlash, murakkab grammatik qoidalarni tushunishga harakat qilish miya neyronlari faoliyatini kuchaytirib, bizni tezkor qarorlar qabul qilishga o'rgatadi. Misol uchun, ingliz tilidagi motivatsion nutqlar, TED Talks loyihasini tinglash orqali nafaqat tilimizni rivojlantiramiz va hayotga bo'lgan qarashlarimizni ham o'zgartiramiz. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, chet tilini o'rganish miya faoliyatini yaxshilab, xotirani kuchaytirar ekan. Demak, biz nafaqat martaba uchun balki intellektual salomatligimiz uchun ham til o'rganishimiz zarur. Hozirgi kunda hayotimizning har bir jabhasiga Sun'iy intellekt kirib kelmoqda. ChatGPT, Gemini bilan ishlashda biz bir narsaga amin bo'ldikki, ushbu texnologiyalarning eng mukammal algoritmlari aynan ingliz tili bazasida yaratilgan. Biz bu tizimlarga qanchalik aniq va savodli tarzda ingliz tilida buyruq bersak, natija ham shunchalik sifatli bo'ladi. Bu esa biz yoshlarga faqat iste'molchi bo'lish emas, balki murakkab texnologik jarayonlarni boshqarish imkonini beradi. Yuqorida keltirilgan barcha fikrlarni umumlashtirilgan holda aytish mumkinki, biz yashayotgan XXI asr-bilimlar asridir. O'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lishni maqsad qilgan har bir yosh uchun bu tilni o'rganish shunchaki xohish emas, balki hayotiy zaruratdir. Shuning uchun ham, biz yoshlar bu imkoniyatdan unumli foydalanib, yurtimiz ravnaqi uchun xizmat qiladigan kadrlar bo'lib yetishishimizga ishonchimiz komil.

Xulosa: Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, ingliz tili shunchaki fan emas, balki hayotiy zaruratga aylanib ulgurdi. Uni o'rganish orqali biz nafaqat dunyoqarashimizni kengaytiramiz, balki kelajakda yaxshi ish topish va o'z sohamizning mutaxassisi bo'lish uchun katta imkoniyat yaratamiz. Ingliz tilini bilish nafaqat universitetdagi darslarda, balki kundalik hayotimizda ham turli imkoniyatlar yaratadi. Masalan, internet resurslaridan erkin foydalanish, xorijiy



maqola va videolarni tarjimasiz tushunish va chet elliklar bilan bimalol muloqot qilish orqali bilimimizni va muloqot qobiliyatimizni oshiradi. Shu sababli, ingliz tilini o'rganish nafaqat shaxsiy rivojlanish emas, balki jamiyat ravnaqi va jahon hamjamiyatiga qo'shilishimiz uchun muhim qadam deb hisoblayman. Tilni bilish global ish bozorida raqobatbardoshlikni oshiradi, turli madaniyatlarni yaxshiroq tushunadi va ilmiy hamkorlikni rivojlantiradi. O'ylaymanki, har bir talaba o'z kasbiy va shaxsiy muvaffaqiyatlari uchun bu tilni o'rganishga jiddiy e'tibor qaratishi shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Crystal D. English as a Global Language. Cambridge University Press, 2003.
2. Graddol D. The Future of English. British Council, 2006.
3. Harmer J. How to Teach English. Longman, 2007.
4. Richards J. C. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press, 2001.